

QUR'ONIYLAR TOIFASINING DA'VOLARI VA AHLI SUNNA IMOMLARINING ULARGA JAVOBI

Ibrohimov Ismoiljon Akramjon o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti, Teologiya (hadis ilmlari)
yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Telefon raqami: +998956600450

Annotatsiya: *Qur'on va sunnat shariyatning bir-biridan ajralmas bo'lgan manbaidir. Qur'oni Karimni payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari va hadislarisiz tushunishning iloji yo'q. Chunki, Qur'on u zotga nozil bo'lgan. Shu sabab undagi ma'nolarni eng yaxshi biladigan odam, bu – Payg'ambarimiz alayhissalomdir. Bu borada noto'g'ri g'oyalarni tarqatayotganlar va Qur'ondagi ba'zi oyatlarni o'zining fikri bilan tafsir qilib, sunnatni inkor qilishga urinayotgan toifalarga ahli sunna val jamoa ulamolari tomonidan yetarlicha raddiyalar berilgan.*

Annotation: *The Qur'an and the Sunnah are inseparable sources of Islamic law. It is impossible to fully understand the Noble Qur'an without the Sunnah and Hadiths of the Prophet Muhammad (peace and blessings be upon him), since the Qur'an was revealed to him. Therefore, the person who best understands its meanings is none other than the Prophet himself. Scholars of Ahl as-Sunnah wa'l-Jama'ah have provided sufficient refutations to those who spread incorrect ideas, interpret certain verses of the Qur'an based on their own opinions, and attempt to reject the Sunnah.*

Аннотация: *Коран и Сунна — неотделимые источники шариата. Понять Священный Коран без Сунны и хадисов пророка Мухаммада (мир ему и благословение) невозможно, так как Коран был ниспослан именно ему. Следовательно, самым знающим толкователем его смысла является сам Пророк (мир ему). Ученые Ахлю-Сунна валь-Джамаа дали достаточные опровержения тем, кто распространяет ошибочные идеи, толкует отдельные аяты Корана на основе собственного мнения и пытается отрицать Сунну.*

Kalit so'zlar: Qur'oniylar, sunnat, Qur'on, dalil, kitob, hikmat, vahiy, zikr, shubha, raddiya, hadis.

Islom dini o'zining aqidaviy, fiqhiy va axloqiy asoslarini Qur'on va sunnatdan oladi. Ushbu ikki manba musulmonlar uchun shariatning ajralmas ustunlari hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni Karimda insoniyatni Qur'on orqali hidoyatga boshlaganini bayon etar ekan, bu ilohiy risolatni tushuntirish va amaliyotga tatbiq etish vazifasini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning zimmasiga yuklagan. Rasululloh

nafaqat Qur'onni yetkazgan zot, balki uning bayonchisi va hayotda tatbiq qiluvchisi hamdir.

Biroq, tarix davomida ba'zi toifalar sunnatga nisbatan shubha bildirgan, ayrimlari esa uni butunlay inkor etishga uringan. Ayniqsa, zamonaviy davrda "Qur'oniylar", "Sunnat inkorchilari" yoki "Qur'an ahli" deb nom olgan oqimlar shular jumlasidandir. Ular faqat Qur'onni asosiy manba deb tan olib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadis va sunnatlarini insoniy so'zlar deb baholaydilar. Ushbu toifa fikricha, Qur'on har bir narsani tushuntirib bergan va unga boshqa manbalarni qo'shish dinni buzish bilan barobardir.

Qur'oniylar harakatining ildizlari XIX asrda Hindistonda shakllangan bo'lib, ular dastlab mustamlaka bosimi ostida bo'lgan musulmonlar orasida diniy yangilanish g'oyasi bilan chiqqan. Biroq vaqt o'tishi bilan ularning da'volari ijtihodan emas, inkordan iborat ekani ma'lum bo'ldi. Bugungi kunda ham internet tarmog'ida, ijtimoiy tarmoqlarda bu toifaning g'oyalari yoshlar ongini chalg'itmoqda.

Mazkur maqolada Qur'oniylar toifasining Qur'oni Karimdan keltiradigan asosiy dalillari tahlil qilinadi va ularga ahli sunna ulamolari tomonidan berilgan qat'iy raddiyalar keltiriladi. Maqolaning maqsadi – sunnatning shariatdagi o'rni, Qur'on bilan bo'lgan uzviy bog'liqligi va Qur'oniylarning da'volarini naqadar asossiz ekanini ilmiy asosda ko'rsatib berishdir.

Bu toifa musulmon jamiyatidan sunnatga bo'lgan e'tiborini yo'qotish uchun bir qancha g'oya va da'volari mavjud. Quyida ular taqdim etiladi:

Birinchi shubha: Qur'onning o'zi hukm uchun yetarlidir. Qur'ondan boshqa narsalarga umuman hojat yo'q. Chunki, Alloh taolo Qur'onda shunday marhamat qiladi:

إِنِ الْحُكْمُ إِلَّا لِلَّهِ

“Hukm qilish faqat Allohgadir”¹.

قَدْ جَاءَكُمْ مِنَ اللَّهِ نُورٌ وَكِتَابٌ مُبِينٌ

“Darhaqiqat, sizlarga Alloh tomonidan bir nur va aniq Kitob keldi”².

مَا فَرَطْنَا فِي الْكِتَابِ مِنْ شَيْءٍ

“Kitobda (Qur'onda) hech narsani qoldirmadik”³.

وَنَزَّلْنَا عَلَيْكَ الْكِتَابَ تَبْيِيحًا لِّكُلِّ شَيْءٍ

“Senga bu Kitobni har bir narsaning tafsiloti sifatida nozil qildik”⁴.

Qur'oniylar toifasining vakillari mana shu oyatni o'zlariga dalil qilib, Qur'onda barcha narsa bayon qilib berilgan. Shuning uchun undan boshqasiga hech qanday ehtiyoj yo'q. Din o'laroq Qur'onning o'zi kifoya deb g'oyalarini ilgari surishadi.

¹ Shayx Abdulziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 134.

² O'sha manba. – B. 110.

³ O'sha manba. – B. 132.

⁴ O'sha manba. – B. 277.

Ularning bu dalillariga Ahli sunnaning javobi:

Birinchi oyatga keladigan bo'lsak, Hukm qilish faqat Allohnik ekaniga biror mo'min kishi shubha qilmaydi. Biroq, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hukmlari ham Alloh taoloning hukmi bo'lib, u Rasulining tili bilan qaror topadi. Shuning uchun ham Alloh taolo quydagicha marhamat qiladi:

وَمَا آتَاكُمُ الرَّسُولُ فَخُذُوهُ وَمَا نَهَاكُمْ عَنْهُ فَانْتَهُوا

Payg'ambar sizga nimani bersa, o'shani olinglar va nimadan qaytarsa, o'shandan qaytinglar⁵.

Alloh taolo boshqa bir oyatda shunday marhamat qiladi:

وَمَا يَنْطِقُ عَنِ الْهَوَىٰ * إِنْ هُوَ إِلَّا وَحْيٌ يُوحَىٰ

“U o'z nafsidan so'zlamaydi. Bu (so'zlari) vahiy qilinayotgan vahiydir”⁶.

Yana bir boshqa oyatda shunday keladi:

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا لِمُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَىٰ اللَّهُ وَرَسُولُهُ أَمْرًا أَنْ يَكُونَ لَهُمُ الْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَنْ يَعْصِ اللَّهَ وَرَسُولَهُ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَالًا مُّبِينًا

“Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga hukm qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, qattiq adashibdi”⁷.

Qur'oniylar toifasining “Kitobda hech narsani qoldirmadik” oyati bilan hujjatlanishlariga kelsak, bu yerdagi “Kitob” dan maqsad haqida tafsir olimlari “Lavh-ul-mahfuz” dir deb aytishgan⁸.

O'zlarining da'volariga hujjat deb bilgan keying oyat esa hukmlarni joriy qilish emas, balki, iymon va kufr masalasi haqida nozil bo'lgan. Agar hukmlarni joriy qilish uchun nozil bo'lgan deb faraz qilsak ham, unga quydagi oyat bilan javob beriladi:

وَأَنْزَلْنَا إِلَيْكَ الذِّكْرَ لِتُبَيِّنَ لِلنَّاسِ مَا نُزِّلَ إِلَيْهِمْ

“Biz sizga Zikrni odamlarga nozil qilingan narsani bayon qilib berishingiz uchun nozil qildik”⁸.

Oyatdagi “Zikr” dan maqsad – sunnatdir. Nozil bo'lgan narsa esa – Qur'ondir. Bu oyatning mazmunidan ham oydek ravshandir. Bundan tashqari sunnatni qo'yib Qur'onning yakka o'ziga amal qilish juda ham qiyindir. Chunki, musulmonlar namoz rak'atlarining adadi, zakotning nisobi va miqdori, haj amallarini qay yo'sinda ado qilish va bularning to'liq tafsiloti faqatgina hadislar orqali bilnadi. Qur'onda esa buyruq va qaytariqlar umumiy tarzda kelib, tafsiloti va tafsiriga kirishib o'tirilmagan⁹.

Imom Bayhaqiy va imom Hokimlar Hasan Basriydan shunday rivoyat qilishadi: “Imron ibn Husoyn Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi

⁵ O'sha manba. – B. 546.

⁶ O'sha manba. – B. 526.

⁷ O'sha manba. – B. 423.

⁸ O'sha manba. – B. 272.

⁹ Abu Osim al-Barakotiy al-Misriy. Sabilu-l-mu'minin fi-r-rodidi ala shubuhati-l-muslimin. – Misr: Dor ibn Umar nashr, 2005. – B. 40.

vasallamning sunnatlari haqida gapirib turganda, bir kishi kelib: “Ey Abu Nujayd! Bizga Qur’ondan gapir”, dedi. Shundan Imron unga shunday javob berdi: “Sen va atrofingdagilar (faqat) Qur’on o’qiydigan bo’lsa, namozning sifati va uning tafsilotlarini aytib berchi?! Oltin, tuya, mol va turli xil mulklardan qanday zakot chiqarish yo’llarini aytib berchi?! Aslida, sen buni bilar eding, lekin, bundan yuz o’girding. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zakotdan falon narsalarni belgilab berganlar va hokazo. Shunda boyagi kishi: “Meni qayta tiriltirding. Alloh umringni uzoq qilsin!”, dedi. Shu kishi keyinchalik musulmonlarning faqihlaridan biriga aylandi”¹⁰.

Sunnat Qur’onning muqobiliga qo’yiladigan bo’lsa, uch ko’rinishdan birida bo’ladi:

1. Qur’onda kelgan hukm bilan to’liq muvofiq bo’ladi. Agar bir hukmda Qur’on va sunnat bir xil bo’lsa, buni usul fiqh ilmida “dalillar ketma-ketligi” deyiladi.
2. Sunnat Qur’on kelgan ma’noni yoritib yoki tafsir qilib keladi.
3. Biror masalaga hukm qilishda Qur’on sukut qilgan bo’lsa, uni halol yoki harom ekanini bayon qilib keladi. Sunnat mana shu uch holatdan boshqasida kelmaydi. Shunday ekan, sunnatdagi hukmlar hech qachon Qur’onga zid bo’lmaydi¹¹.

Ikkinchi va uchinchi shubha: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam faqatgina Qur’onning o’zini yetkazganlar. Qolaversa, sunnat vahiy emas.

Ularning dalili:

إِنْ عَلَيْكَ إِلَّا الْبَلَاغُ

“(Ey Muhammad), sizga faqat (Qur’onni) yetkazish lozim”¹².

Ahli sunna ulamolarining raddiyasi:

Ha, Rasululloh (s.a.v) Qur’onni yetkazganlar, lekin, bu yetkazish bayon va amaliy tatbiqsiz bo’lmagan. Qur’onning boshqa oyatida shunday keladi:

وَمَا يَنْطِقُ عَنِ الْهَوَىٰ * إِنْ هُوَ إِلَّا وَحْيٌ يُوحَىٰ

“U o’z nafsidan so’zlamaydi. Bu (so’zlari) vahiy qilinayotgan vahiydir”¹³.

Demak, Rasulullohning so’zlari ham vahiy asosidagi so’zlar bo’lib, bu sunnatning ilohiyligini tasdiqlaydi¹⁴.

Bundan tashqari Alloma Muhammad Taqiy Usmoniy bu borada shunday deydi: “Payg’ambarimiz alayhissalom insoniyatga yuborilganlarida qanday mavqe (maqom)ga ega edilar? U zot sollallohu alayhi vasallam pochta xodimi kabi faqat yetkazib beruvchi va xatning nima bo’lishi haqida o’ylamaydigan bo’lganmilar?

¹⁰ Ahmad ibn Husayn ibn Ali Abu Bakr al-Bayhaqiy. Sunanu-l-Bayhaqiy kubro. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 2003. – J. 1. B. 468.

¹¹ Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Bakr. I’lamu-l-muwaqqi’in an robbi-l-alam. – Bayrut: Dor ibn Hazm, 2019. – J. 2. – B.303.

¹² Shayx Abdulziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 488..

¹³ O’sha manba. – B. 526.

¹⁴ Mustafo as-Siboiy. As-sunna va makanatuha fi-t-tashri’i-l-islamiy. – Bayrut: Doru-l-varroq, 2008. – B. 172.

Javob aniq: aslo yo‘q! Payg‘ambarlar alayhissalom faqat Alloh taoloning Kalomini odamlarga yetkazish uchun yuborilmagan. Ulardan ilohiy ta‘limotni yetkazish, uni tushuntirish va amaliy namuna bo‘lish talab etilgan.

Ilohiy kitoblarni yetkazish bilan payg‘ambarlarning vazifalari tugamaydi, balki, ular insoniyatga kitobdagi ko‘rsatmalarga muvofiq yashashni o‘rgatishlari lozim. Qur‘oni karimning ushbu oyati bunga shubha qoldirmaydi:

لَقَدْ مَنَّ اللَّهُ عَلَى الْمُؤْمِنِينَ إِذْ بَعَثَ فِيهِمْ رَسُولًا مِّنْ أَنفُسِهِمْ يَتْلُوا عَلَيْهِمْ آيَاتِهِ، وَيُزَكِّيهِمْ وَيُعَلِّمُهُمُ الْكِتَابَ وَالْحِكْمَةَ وَإِنْ كَانُوا مِن قَبْلُ لَفِي ضَلَالٍ مُّبِينٍ

“Alloh o‘z ichlaridan Allohning oyatlarini o‘qib beradigan, ularni (shirk va gunohlardan) musaffo qiladigan hamda ularga Kitob va Hikmatni ta‘lim beradigan Payg‘ambarni yuborish bilan, mo‘minlarga in‘om etdi. Ular esa bundan oldin aniq gumrohlikda edilar”¹⁵.

هُوَ الَّذِي بَعَثَ فِي الْأُمِّيِّينَ رَسُولًا مِّنْهُمْ يَتْلُوا عَلَيْهِمْ آيَاتِهِ، وَيُزَكِّيهِمْ وَيُعَلِّمُهُمُ الْكِتَابَ وَالْحِكْمَةَ

“U (Alloh) omilar (savodsiz kishilar) orasiga o‘zlaridan bo‘lgan, ularga (Uning) oyatlarini tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga Kitob (Qur‘on) va Hikmat (Hadis)ni o‘rgatadigan (bir) payg‘ambarni (Muhammadni) yuborgan Zotdir”¹⁶.

Ushbu oyat ma‘nolari Ibrohim alayhissalom duolarida ham o‘z aksini topgan:

رَبَّنَا وَابْعَثْ فِيهِمْ رَسُولًا مِّنْهُمْ يَتْلُوا عَلَيْهِمْ آيَاتِكَ وَيُعَلِّمُهُمُ الْكِتَابَ وَالْحِكْمَةَ وَيُزَكِّيهِمْ

“Ey, Robbimiz, ularga (kelajak ummatlarga) o‘zlaridan (chiqqan), ularga oyatlaringni tilovat qilib beradigan, Kitob va hikmat (Qur‘on va hadis)ni o‘rgatadigan va ularni (kufr va gunohlardan) poklaydigan bir payg‘ambarni yuborin!”¹⁷.

Ushbu oyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning payg‘ambarlikdagi to‘rt vazifalari bayon etilmoqda:

1. Alloh taoloning Kalomi - Qur‘oni karim oyatlarini tilovat qilish (yetkazish).
2. Qur‘ondan ta‘lim berish.
3. Hikmat (hadis)ni o‘rgatish.
4. Insonlarni shirk va zulmat botqog‘idan hidoyat nuri sari boshlash”¹⁸.

Demak, ushbu oyatlardan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vazifalari faqatgina Allohning buyruqlarini yetkazish emas, balki o‘sha buyruqlar asosida insonlarni yashashga o‘rgatish ekani ma‘lum bo‘ladi.

¹⁵ Shayx Abdulziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 71.

¹⁶ O‘sha manba. – B. 553.

¹⁷ O‘sha manba. – B. 20.

¹⁸ Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom shariyatida sunnatning o‘rni (Matn)/Tarjimon va izohlar muallifi: Davron Nurmuhhammad. – Toshkent: “Matbaachi”, 2023. – B. 8.

Shuningdek, u zot alayhissalomdan hikmatni o'rgatish talab etiladi. Yana bu hali hammasi emas. Nabiy alayhissalom amaliy namuna bo'lib, insonlarni zalolatdan hidoyat nuri sari boshlashlari ham zarur.

a) Qur'on oyatlarini yetkazish Nabiy alayhissalomning vazifalaridan biri ekanini Qur'oni karim oyatlari tasdiqlaydi.

b) U zot alayhissalomning Qur'on tafsiridagi sharhlari hal qiluvchi asos sanaladi.

d) Nabiy alayhissalom ilohiy ko'rsatmaga asoslangan hikmatni o'rgatuvchi hisoblanadilar.

g) Insonlarni islom shariati asosida yashashga o'rgatishda namuna o'laroq bo'lishlariga ishonch bildirilgan.

Musulmonlar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga itoat etishlari va ergashishlari shart bo'lmaganida u zot alayxis salomning ushbu vazifalari bajarilmagan bo'lardi. Inchunun, Nabiy alayhissalomning so'zlariga amal qilish - ummat uchun majburiy, amallari esa go'zal namunadir.

Alloh taolo qator oyatlarda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga itoat etishga va ergashishga buyuradi. Bu borada, Qu'roni karimda ikki so'z: "itoat" – bo'yinsunish va "ittibo" – ergashish ishlatiladi.

Birinchi so'z (itoat) Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning buyruq va so'zlariga itoat etishni anglatadi, ikkinchisi (ittibo) esa, u zot alayhissalomning amallariga ergashishni bildiradi.

Xulosa: Qur'oniylar sunnatni rad etish orqali Islom shariatining yarmidan ko'prog'ini yo'qqa chiqaradilar. Ahli sunna ulamolari esa Qur'on va sunnat bir butunligini, sunnatsiz Qur'onni to'liq tushunib bo'lmashligini qat'iy dalillar bilan isbotlab keladilar. Sunnatni rad etish diniy hayotni buzish, shariatni o'zgartirishga olib keladi. Ilmiy asos va manbalar Qur'oniylar da'volarining asossizligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Abdulziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
2. Abu Osim al-Barakotiy al-Misriy. Sabilu-l-mu'minin fi-r-roddi ala shubuhati-l-muslimin. – Misr: Dor ibn Umar nashr, 2005.
3. Ahmad ibn Husayn ibn Ali Abu Bakr al-Bayhaqiy. Sunanu-l-Bayhaqiy kubro. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 2003.
4. Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Bakr. I'lamu-l-muvaqqi'in an robbi-l-alamini. – Bayrut: Dor ibn Hazm, 2019.
5. Mustafo as-Sibo'iy. As-sunna va makanatuha fi-t-tashri'i-l-islamiy. – Bayrut: Doru-l-varroq, 2008.
6. Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom shariyatida sunnatning o'rni (Matn)/Tarjimon va izohlar muallifi: Davron Nurmuhammad. – Toshkent: "Matbaachi", 2023.
7. www.muslim.uz